


EHTIYOJMAND AHOLIGA ELEKTR ENERGIYASI VA TABIIY GAZDAN FOYDALANGANGANLIK UCHUN TO‘LANADIGAN TO‘LOVLARNI KOMPENSATSIYA QILISH HAMDA BIR MARTALIK MODDIY YORDAM BERISH TARTIBI BO‘YICHA

USLUBIY QO‘LLANMA



“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi
Toshkent – 2025

Ehtiyojmand aholiga elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanganlik uchun to'lanadigan to'lovlarni kompensatsiya qilish hamda bir martalik moddiy yordam berish tartibi bo'yicha uslubiy qo'llanma. – Toshkent. “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y. – ** b.

© O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil.

© “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y.

**FOYDALANILGAN
NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR**

1.	O'zbekiston Respublikasining "Energetika to'g'risida"gi Qonuni	
2.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishda ehtiyojmand aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;	
3.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori	



Kirish. Asosiy tushunchalar

Ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan holda aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbuslari va topshiriqlari asosida ehtiyojmand oilalarga gaz va elektr energiyasi bo'yicha kommunal to'lovlarni qoplashda moddiy yordam va kompensatsiya ajratish amaliyoti yo'lga qo'yilgan.

Xususan, mamlakatimizda yoqilg'i-energetika resurslari narxlari shakllanishini bosqichma-bosqich bozor tamoyillariga o'tkazish davrida aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy yilning 2-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishda ehtiyojmand aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorda **2025-yilning 1-mayidan 2027-yilning 1-aprel kuniga qadar** belgilangan toifadagi aholiga foydalanilgan tabiiy gaz hamda elektr energiya iste'moli uchun davlat tomonidan **kompensatsiya pullari** to'lab berilishi belgilab qo'yildi.

Shuningdek, **2025/2026-yilgi isitish mavsumida** aholining ehtiyojmand qatlamini qo'shimcha moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy yilning noyabr oyida quyidagi oilalarga 1 million so'mdan bir martalik **moddiy yordam** ajratililishi belgilab qo'yilgan.



Mazkur qo'llanmaning asosiy maqsadi mahalliy davlat organlari, ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar hamda fuqarolarni ushbu qarorlar asosida belgilangan mexanizmlar bilan tanishtirish, shuningdek, aholiga manzilli va shaffof yordam ko'rsatishni ta'minlashga ko'maklashishdan iborat.

Foydalanilgan tabiiy gaz hamda elektr energiya iste'moli uchun davlat tomonidan kompensatsiya pullari to'lab beriladigan toifalar



Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra 2025-2026 yilgi isitish mavsumi davomida davlat tomonidan **1,3 milliondan ortiq oilaga 1 trillion 330 milliard** miqdorida bir martalik moddiy yordam pullari to'lab beriladi.



KIMLARGA TO'LAB BERILADI?

	“Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali bolalar nafaqasi va moddiy yordam oluvchi oilalar
	Kambag'al oilalar reyestriga kiritilgan oilalar
	Reyestrlarga kiritilmagan, biroq moddiy ahvoli bo'yicha kam ta'minlangan oilalar mezonlariga to'g'ri keluvchi, oiladagi jon boshiga daromadi minimal iste'mol xarajatlarining 1,5 barobaridan oshmaydigan oilalarga

Bunda:



ELEKTR ENERGIYASI ISTE'MOLI BO'YICHA — oyiga bazaviy me'yordan **150 kVt soatgacha**;



TABIIY GAZ ISTE'MOLI BO'YICHA — isitish mavsumida oyiga bazaviy me'yordan **250 kub metrgacha**, boshqa davrlarda oyiga bazaviy me'yordan **150 kub metrgacha** ortiq foydalanilgan qismi uchun bazaviy me'yor doirasidagi hamda bazaviy me'yordan oshgan narxlar o'rtasidagi farq kompensatsiya qilib beriladi.



Yuqoridagilarga va joriy tariflarga asosan, kompensatsiya miqdori:



**ELEKTR ENERGIYASI
BO'YICHA –**

oyiga **30 ming**
so'mdan oshmaydi;



TABIY GAZ BO'YICHA –

isitish mavsumida oyiga
200 ming so'mdan, qolgan
davrda oyiga **120 ming** so'mdan
oshmaydi.

Tabiiy gaz va elektr energiyasi iste'moli uchun bazaviy me'vor doirasidagi hamda bazaviy me'vordan oshgan narxlar o'rtasidagi farqni kompensatsiya qilib berish tartibi



Qilinadigan harakatlar	Belgilangan muddat
Kompensatsiya oluvchi oilalar “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari yoki mahallalarda faoliyat yurituvchi ijtimoiy xodimlarga murojaat qiladi. (Bunda arizada pasport ma'lumotlari, abonent raqami va telefon raqami ko'rsatiladi)	Har oyning 15-sanasiga qadar*
“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi Kompensatsiya oluvchi oilalarning ma'lumotini “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimiga kiritadi.	Ariza berilgan oyning 25-sanasiga qadar

	1. Ijtimoiy himoya milliy agentligi Kompensatsiya oluvchi oilalarning elektr energiyasi va (yoki) tabiiy gaz iste'moli haqidagi ma'lumotlarini "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ va (yoki) "Hududgazta'minot" AJning tegishli axborot tizimlari orqali o'rganadi. 2. Kompensatsiya oluvchi oilalarning uy-joy va (yoki) avtotransport vositalari mavjudligi hamda jon boshiga daromadi minimal iste'mol xarajatlarining 1,5 barobaridan oshmaganligi o'rganiladi.	Ariza berilgan oyning 27-sanasi qadar
	Ijtimoiy himoya milliy agentligi Kompensatsiya oluvchi oilalar bo'yicha to'lov ro'yxatlarini shakllantirib, AT "Xalq banki"ga yuboradi.	Ariza berilgan oydan keyingi oyning 5-sanasi qadar
	Iqtisodiyot va moliya vazirligi Kompensatsiya oluvchi oilalarga kompensatsiya to'lovini to'lab berish uchun zarur mablag'larni AT "Xalq banki"ga o'tkazib beradi.	har oyning 5 — 25-sanasi qadar

AT “Xalq banki” Kompensatsiya to’lovini bank kartasi orqali to’lab beradi.	Ariza berilgan oydan keyingi oyning 27-sanasiga qadar
Agar ariza beruvchining nomida bank kartasi mavjud bo’lmasa, AT “Xalq banki”da uning oila a’zolari nomiga ochilgan bank kartasiga to’lab berilishi mumkin.	



Agar ariza beruvchining nomida bank kartasi mavjud bo’lmasa, AT “Xalq banki”da uning oila a’zolari nomiga ochilgan bank kartasiga to’lab berilishi mumkin.





2025/2026-yilgi isitish mavsumida aholining ehtiyojmand qatlamini qo'shimcha moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy yilning noqabr oyida quyidagi oilalarga 1 million so'mdan bir martalik moddiy yordam ajratish

Kimlarga to'lab beriladi?




“Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali bolalar nafaqasi va moddiy yordam oluvchi hamda Kambag'al oilalar reyestriga kiritilgan oilalar;



“Mahalla yettiligi” xulosasi asosida Reyestrlarga kiritilmagan, biroq yordamga muhtoj oilalarga.

“Mahalla yettilligi” tomonidan qo‘shimcha ro‘yxat shakllantirilishida birinchi navbatda quyidagilar inobatga olinadi:



Bilib oling!

Kompensatsiya to'lovlari va bir martalik moddiy yordam mablag'lari O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'lari hisobidan Ijtimoiy himoya milliy agentligi orqali to'lab beriladi.



!!! Bunda noyabr oyida to'lov ro'yxatlariga kiritilib, biroq o'z vaqtida olinmay qolgan bir martalik moddiy yordam pullari dekabr oyida to'lab beriladi;

Elektr energiyasi bozorida elektr energiyasining raqobatli ulgurji va chakana bozori qoidalarida belgilanadigan tartibda elektr energiyasini hamda qo'shimcha xizmatlarni sotish va (yoki) sotib olish amalga oshiriladi.

Elektr energiyasining chakana bozorida iste'molchi va ta'minotchi o'rtasida elektr energiyasini sotish va (yoki) sotib olish amalga oshiriladi.

Elektr energiyasining raqobatli ulgurji va chakana bozorlari Qonunga, elektr energiyasi bozori konsepsiyasi va qoidalariga muvofiq tashkil etiladi.

Elektr energiyasi bozori tashkil etilguniga qadar markaziy xarid qiluvchining modeli elektr energiyasi bozorining vaqtincha mexanizmi hisoblanadi.



Bilib oling!

Isitish mavsumi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari qarorlari asosida ushbu qarorda belgilangan davrdan farq qiladigan davr uchun belgilanishi mumkin.



!!! Bunda tabiiy gaz uchun kompensatsiya to'lovlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari qarorlarida belgilangan isitish mavsumi uchun amalga oshiriladi hamda kompensatsiya miqdorini hisoblashda isitish mavsumining boshlanishi yoki tugashi belgilangan sanadagi oy isitish mavsumi oyi sifatida hisobga olinadi.

Elektr energiyasi iste'molchisi quyidagi huquqlarga ega:

- ta'minotchidan sifatli va barqaror elektr energiyasini sotib olish va undan foydalanish;
- namunaviy shartnomaning shartlari o'zgartirilishi munosabati bilan shartnomani bekor qilish;
- namunaviy shartnomaning shartlari to'liq bajarilishini

ta'minlash uchun ta'minotchiga murojaat qilish;

- ta'minotchidan o'ziga tegishli ma'lumotni oshkor etishni so'rash;
- tegishli tizim operatori yoki ta'minotchi tomonidan elektr energiyasi to'liq yetkazib berilmaganligi yoki sifat ko'rsatkichlari milliy standartlarga mos bo'lmagan elektr energiyasi yetkazib berilganligi sababli yetkazilgan zararning o'rni belgilangan tartibda qoplanishini talab qilish;
- elektr energiyasi iste'moli to'g'risidagi har qanday ma'lumotlarning oshkor qilinishini talab qilish;
- qonunchilikka muvofiq o'z obyektlarini tegishli tizim operatorining obyektlariga ulash;
- elektr energiyasining iste'mol qilinishi bo'yicha barcha tegishli ma'lumotlarni olish;
- tegishli tizim operatorida texnik yoki boshqa nosozliklar yuzaga kelganda namunaviy shartnoma shartlariga muvofiq ularni eng qisqa muddatlarda bartaraf etishni talab qilish.

DIQQAT!

Yirik iste'molchi ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan huquqlardan tashqari ulgurji yoki chakana bozorda (bir nechta ta'minotchidan) elektr energiyasini sotib olish huquqiga ham ega.





Isitish mavsumida aholining ehtiyojmand qatlamini qo'shimcha moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida bir martalik moddiy yordam berish tartibi

Bosqichlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali Reyestrlarga kiritilgan oilalarning dastlabki ro'yxatini shakllantiradi va Reyestrlarga kirmagan bir martalik moddiy oluvchi oilalar qo'shimcha ro'yxatini shakllantirish uchun O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman (shahar) bo'limlari orqali “mahalla yettiligi”ga yetkazadi.	1-sentabrga qadar
2-bosqich	“Mahalla yettiligi” Reyestrlarga kirmagan moddiy yordam oluvchi oilalarning qo'shimcha ro'yxatini shakllantiradi va O'zbekiston mahallalari uyushmasining tuman (shahar) bo'limiga taqdim etadi.	1-oktabrga qadar

3-bosqich	O'zbekiston mahallalari uyushmasining tuman (shahar) bo'limi Moddiy yordam oluvchi oilalarning qo'shimcha ro'yxatini umumlashtiradi hamda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markaziga o'rganib chiqish uchun taqdim etadi.	5-oktabrga qadar
4-bosqich	"Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi Moddiy yordam oluvchi oilalarning qo'shimcha ro'yxatini "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali tekshirib chiqadi va yakuniy ro'yxatni O'zbekiston mahallalari uyushmasining tuman (shahar) bo'limiga taqdim etadi.	20-oktabrga qadar
5-bosqich	Moddiy yordam oluvchi oilalarning qo'shimcha yakuniy ro'yxatini tuman (shahar) hokimligiga tasdiqlatib, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markaziga taqdim etadi.	25-oktabrga qadar

6-bosqich	“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi taqdim etilgan qo’shimcha ro’yxat va Reyestrlarga kiritilgan oilalardan iborat moddiy yordam oluvchi oilalar ro’yxatini shakllantiradi.	1-noyabrga qadar
7-bosqich	Ijtimoiy himoya milliy agentligi Moddiy yordam oluvchi oilalar bo’yicha to’lov ro’yxatlarini shakllantirib, AT “Xalq banki”ga yuboradi.	20-noyabrga qadar
8-bosqich	Iqtisodiyot va moliya vazirligi Moddiy yordam to’lovi uchun zarur mablag’larni AT “Xalq banki”ga o’tkazib beradi.	25-noyabrga qadar
9-bosqich	AT “Xalq banki” Moddiy yordam oluvchi oilalarga belgilangan tartibda bir martalik moddiy yordam to’lab beradi.	27-noyabrga qadar

**Ehtiyojmand aholiga elektr energiyasi va tabiiy gazdan
foydalanganganlik uchun to'lanadigan to'lovlarni
kompensatsiya qilish hamda bir martalik moddiy yordam
berish tartibi bo'yicha uslubiy qo'llanma**

Kompyuterda sahifalovchi:

Jamshid G'ofurov

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi

“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi.

Nashr. lis. AI № 032, 29.10.2019.

Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy.

Telefonlar: (99871) 233-28-18, (99871) 280-55-47

Veb sayt: www.adolatmarkazi.uz

e-mail: info@adolatmarkazi.uz

Qog'oz bichimi 60x841/16. “Calibri” garniturası.

Ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i *

Nashriyot hisob tabog'i **. Adadi ** nusxa.

***-buyurtma. Narxi shartnoma asosida.